



SANGZOR DARYOSI HAVZASINING TABIIY VA JUG‘ROFIY O‘ZIGA XOSLIKLARI

Berdikulova Nargiza Yusufjon qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti.,
nargizaberdikulova@jdpu.uz

Berdikulov Xudoyshukur Keldiyorovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti v.b dotsenti.
xberdikulov@inbox.ru

Annotatsiya:

Sanzor daryosi havzasining tabiiy-geografik xususiyatlari, xususan, uning geologik, geomorfologik, gidrologik, iqlimiy va tuproq sharoitlari ushbu tadqiqotda atroflicha yoritilgan. Havza Turon fizik-geografik provinsiyasining O‘rtazarafshon okrugi sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, Jizzax viloyatining Baxmal va G‘allaorol tumanlarini qamrab oladi. Geologik jihatdan, havza Alp burmalanishi davrida shakllangan bo‘lib, Sanzor daryosi dastlab Zarafshon daryosining o‘ng irmog‘i sifatida mavjud bo‘lgan, ammo keyinchalik Sirdaryo havzasi tomon yo‘nalishini o‘zgartirgan. Geomorfologik tuzilishi Molguzar va Turkiston tog‘ tizmalari orasidagi uchburchak shaklidagi joylashuvi bilan ajralib turadi. Gidrologik xususiyatlari qor-yomg‘ir aralash to‘yinishi va 2526 km² maydonni qamrab oluvchi suv yig‘uvchi havzasi bilan tavsiflanadi. Iqlimiy sharoitlar sub tropik xususiyatlarga yaqin bo‘lib, yuqori radiatsiya, quruq havo va mavsumiy harorat o‘zgarishlari bilan xarakterlanadi. Havzadagi tuproqlar mu rakkab relef, iqlim va o‘simliklar qoplamining xilma-xilligi tufayli turli xil bo‘lib, ma daniy, o‘tloq, bo‘z, tog‘ jigarrang va och tusli qo‘ng‘ir tuproqlar sifatida ta baqalana di. Ushbu tadqiqot havzaning tabiiy resurslarini o‘rganish va xo‘jalikda foydalanish imkoniyatlarini baholash uchun muhim ma’lumotlarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: Sanzor daryosi, tabiiy-geografik sharoitlar, geomorfologiya, gidrologiya, iqlim, tuproqlar, ma daniy tuproqlar, o‘tloq tuproqlar, bo‘z tuproqlar, tog‘ jigarrang tuproqlar, och tusli qo‘ng‘ir tuproqlar, Jizzax viloyati, Turkiston



tog'lari, Molguzar tog'lari, Zarafshon daryosi, Sirdaryo havzasi, Amir Temur darvozasi, antropogen ta'sir.

Geografik joylashuv. Sangzor daryosi havzasi Turon fizik-geografik provinsiyasining O'rta Zarafshon okrugi sharqiy qismida o'rnalishgan [1], [2]. Ma'muriy jihatdan u O'zbekiston Respublikasining Jizzax viloyatiga qarashli Baxmal tumanini to'liq va G'allaorol tumanining janubiy qismini qamrab oladi.

Geomorfologik tuzilishi. Sangzor daryosi havzasi geomorfologik jihatdan Molguzar va Turkiston tog' tizmalari orasida uchburchak shaklida joylashgan. Havzaning yuqori qismi tor (2-3 km), quyi qismi esa kengayib, 15-20 km gacha etsada, umumiy yo'nalishda qiyalanib boradi. Balx qishlog'i yaqinida havza baland tekislik ko'rinishiga ega bo'lib, keyinchalik shimolga burilib, yana torroq shaklga kiradi va Amir Temur darvozasi (Ilono'tti darasi) deb ataluvchi tar daraga aylanadi. Bu dara orqali havza Jizzax vohasiga ulanib ketadi. Havzaning geomorfologik xususiyatlari maxsus o'rganilmagan bo'lsa-da, ba'zi tabiiy-geografik jarayonlar olimlar tomonidan ko'rib chiqilgan [3]. Havzadagi adirlar yuzasi doimiy va vaqtincha oqar suvlarning erozion va akkumulyativ ta'siri natijasida kuchli parchalangan. Jarlanish va suffoziya jarayonlari keng tarqalgan. Molguzar tog'i 70 km ga cho'zilgan bo'lib, nisbatan past (2600 m), Chumqor tog'i esa Turkiston tog'i bilan birga 75 km masofani egallaydi va balandligi 2000-3500 m ga etadi. Tog'larning yonbag'irlari qisqa, lekin chuqur eroziya chiziqlari bilan keskin parchalangan bo'lib, soylarning yuqori qismlarini o'z ichiga oladi.

Geologik tarixi. Sangzor daryosi uzoq geologik davrlarda Zarafshon daryosining yirik o'ng irmog'i sifatida shakllangan, deb hisoblaydi P. Baratov [4]. Alp burmalanish davrida havza qayta ko'tarilib, Turkiston tog' tizmasi va unga yondosh Marjonbuloq va Kampirrovot balandliklari Sangzor daryosini Zarafshon daryosidan geologik jihatdan ajratib qo'ydi. Natojada, daryo o'z oqimi yo'nalishini shimolga, ya'ni Sirdaryo havzasi tomonga o'zgartirdi. Turkiston va Nurota tog' tizmalarini bir-biridan ajratib turuvchi Amir Temur darvozasi deb ataluvchi tar dara neogen davri boshlarida Sangzor daryosining egarsimon past joyni doimiy ravishda emirishi natijasida paydo bo'lgan.

Gidrologik tavsifi. Sangzor daryosi havzasining gidrologik xususiyatlari V.A. Shuls va R. Mashrapov ma'lumotlari asosida o'rganilgan [5]. Ushbu havzaning



gidrologiyasi N.I. Plotnikov, G.G. Volkov, R.P. Kim kabi olimlar tomonidan batafsil tadqiq qilingan Havzaning asosiy suv yig'uvchi oqimi Sangzor daryosi bo'lib, u G'uralash va Jonteka tog' soylarining qo'shilishi natijasida shakllanadi. Daryoning to'yinish turi qor-yomg'ir aralash xususiyatga ega bo'lib, suv yig'uvchi maydoni 2526 km² ni tashkil etadi.

Iqlimiy xususiyatlari. Sangzor daryosi havzasining iqlimiy sharoitlari bir qator tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan B.P. Alisovning ta'kidlashicha [4], ushbu havza subtropik mintaqaning shimoliy chegarasida joylashgan. Shu sababli, iqlimning asosiy ko'rsatkichlari quruq havo, yuqori radiatsiya miqdori va mavsumiy ob-havo o'zgarishlari bilan subtropik xususiyatlarga yaqindir. G'allaorol atrofida, ya'ni yilning eng uzoq kuni quyosh ufqdan 74° balandlikda ko'tariladi, bu esa quyosh nurlanishining uzoq davom etishiga olib keladi.

Sangzor vodiysining iqlimiy sharoitlari shakllanishida havo massalarining harakati muhim rol o'ynaydi. Yoz faslida hudud tez issiqlashib, mahalliy kontinental tropik havo massalari shakllanadi. Bu jarayonda termik depressiya yuzaga kelib, shimol va g'arbdan havo oqimlarini o'ziga tortadi. Biroq, bu havo massalari havza ichidagi yuqori haroratli er yuzasi ta'sirida tez issiqlashib, nisbiy namligi kamayib, kondensatsiya jarayonlari qiyinlashadi. Natijada, vodiyning tekislik qismida (G'allaorol botig'i) bulutsiz va yog'insiz ob-havo ustunlik qiladi. Harorat keskin o'zgarishlarga uchramaydi, lekin tekislikka nisbatan tog'li hududlarda 3-5°C dan 10°C gacha pasayishi mumkin. Tog'li qismlarda esa namgarchilik darajasi birmuncha yuqori bo'lishi kuzatiladi.

Havzaning dengiz sathidan 1300 m balandlikda joylashgan hududlarida (masalan, Baxmal meteostansiyasi) yillik o'rtacha havo harorati yillar bo'yicha o'zgarib tursada, umumiy farq 2°C atrofida bo'ladi. Eng sovuq oy yanvar, eng issiq oy esa iyuldir. Havo namligi va yog'ingarchilik. Havo namligi o'simliklar qoplamining shakllanishida muhim omil hisoblanadi. 1300 m balandlikda havo namligining o'rtacha oylik ko'rsatkichi yanvarda 810-840 mb ga etadi, iyulda esa 280-320 mb gacha pasayadi. Yog'ingarchilik miqdori havza bo'ylab notekis taqsimlanadi.

Sangzor daryosi havzasining tuproq xususiyatlari. Sangzor daryosi havzasining tuproqlari N.A. Buskov, T.D. Jumabaev, M.A. Pankov tomonidan tadqiq qilingan va "O'zbekiston tuproqlari" monografiyasida batafsil yoritilgan [6]. Ularning



tadqiqotlariga ko'ra, havzadagi murakkab relief tuzilishi, tuproq hosil qiluvchi ona jinslarning xilma-xilligi, iqlimning noravshanligi, o'simliklar qoplamining turli darajada rivojlanishi va antropogen ta'sirlar tufayli tuproq shakllanish jarayonlari bir xilda kechmaydi. Balandlik zonalarining o'zgarishiga qarab, tuproq qoplami ham sezilarli darajada almashib boradi va quyidagi tarzda tabaqalanadi:

Madaniy tuproqlar. Sangzor daryosi havzasining sug'oriladigan zonalarida madaniy tuproqlar keng tarqalgan. Bu tuproqlar asosan bo'z yoki tipik bo'z tuproq turlariga xos bo'lib, uzoq vaqt davomida antropogen ta'sir ostida mexanik tarkibi o'zgargan. Natijada, madaniylashgan qatlam shakllanib, bu hududlar to'liq o'zlashtirilgan.

O'tloq tuproqlar. O'tloq tuproqlar Sangzor daryosi o'zani va uning yon tarmoqlari bo'lgan soylar bo'ylab, birinchi va ikkinchi tartibli terrasalarda uchraydi. Grunt suvining yuzaga yaqin joylashuvi bu mintaqada o'tloqlarning rivojlanishi, chirish jarayonlarining tezlashuvi va gumus miqdorining ortishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Tipik va to'q tusli bo'z tuproqlar. Bu turdagi tuproqlar daryoning yuqori terrasalarida kuzatiladi. Nisbatan past balandlik va quruq iqlim sharoiti (yillik yog'in miqdori 350 mm atrofida) tufayli tipik va to'q tusli bo'z tuproqlar shakllangan. Jarlanish va suffoziya jarayonlari kuchli rivojlangan. Ayrim joylarda qumtosh va slaneslar asosida to'q tusli bo'z tuproqlar tarkib topgan.

Tog' jigarrang tuproqlari. Dengiz sathidan 1600-2600 m balandlikda joylashgan, tik yonbag'irli tog'li hududlarda tog' jigarrang tuproqlari tarqalgan. Tuproqni shakllantiruvchi ona jinslar qumtosh, slanes va ohaktoshlardan iborat. Bu tuproqlarning yuza qismi gumus bilan boy, gumus miqdori 9,3% gacha ko'tariladi. Yuqori yog'ingarchilik tufayli o'simliklar qoplami, xususan, archazor o'rmonlar keng tarqalgan.

Och tusli qo'ng'ir tuproqlar. Chumqortog'ning 2600 m dan yuqori balandlikdagi suv ayirg'ich zonalarida och tusli qo'ng'ir tuproqlar mavjud. Bu hududlarda past harorat tufayli chirindi miqdori kam va tuproq qatlami yupqa. Tuproq paleozoy davriga xos qumtosh va slaneslardan shakllangan allyuviiy va delyuviiy jinslar asosida paydo bo'lgan. Yonbag'irlarda qoyali jinslar yuzaga chiqib, tuproq qatlami to'liq shakllanmagan joylar ham kuzatiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бабушкин Л.Н. Физико-географические условия Узбекистана. Климат // Растительный покров Узбекистана. В 4-х т –Ташкент: Фан, 1971. Т. 1.– С. 48
2. Бабушкин Л.Н., Когай К.А. Физико-географическое районирование Узбекистана / Сб. науч. тр. ТашГУ. – Ташкент, 1964. – вып. 231. – С. 131-161.
3. Жиззах вилоятининг маъмурий ва табиий-географик картаси. М. 1:155000. – Тошкент: МАГК, 1998
4. Маматкулов М.М. Карст горного Тяньшаня. – Ташкент: Фан, 1979. – 65 с.
5. Ниязов Р.А. Оползны Узбекистана. – Ташкент: Гидроингео, 2009. – 49с.
6. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – 45 б.